

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING OMILLARI

Yunusaliyeva Guljahon Araboy qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda ekologik muammolar global darajada dolzarb masalalardan biriga aylangan. Tabiatga bo'lgan hurmat va mas'uliyat hissini shakllantirish esa ayniqsa yosh avlod uchun muhimdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z hayotlarida ekologik qadriyatlarni o'zlashtirishlari, tabiatga bo'lgan munosabatlarini rivojlantirishlari zarur. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy omillari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, huquqiy ekologik tarbiya.

Kirish

Yoshlarda ekologik ta'limni rivojlantirish masalasining naqadar muhimligini e'tirof qilgan holda ta'kidlash mumkinki, bunday davra suhbatlari, munozaralar oliygohlar qoshida tashkil qilingan radio yoki televidenie orqali namoyish qilinishi va talabalarning keng muhokamasiga qo'yilishi yaxshi natijalarni beradi. Mustaqil tadqiqotchilik ishlarini olib borish davomida talabalar ko'pgina statistik ma'lumotlarni to'playdilar, ilmiy - ommabop adabiyotlar, ma'lumotnomalarni tahlil qiladilar, ekologiya sohasida ish olib borayotgan mutaxassislarga murojaat etadilar, to'plangan natijalarni umumlashtiradilar. Shu bilan birga, talabalar dunyo miqyosida ekologik muammolarning o'rganilishi, ekologik tarbiya borasida olib borilayotgan ishlar qanday yo'lga qo'yilganligi bilan tanishish maqsadida, Internet orqali ko'plab ma'lumotlarni biladilar va ish tajribalarini qiyosiy tahlil qiladilar. Ekologik fojialarning oldini olishning birdan-bir yo'li tabiatni muhofaza qilish, barcha tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanishdir. Ammo, har bir inson qalbida ekologik madaniyatni shakllantirmay turib, bu borada kutilgan natijalarga erishish qiyin. Yoshlar ongiga tabiatning o'z qonun - qoidalari mavjudligini, tabiatdagi barcha hodisalar, o'zgarishlar bir-biri bilan bog'liqligini, umuman, insonning tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishi lozimligi haqidagi tasavvurlarni singdirish, shubhasiz muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda, Vatanimiz tarixi va madaniyati, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganishga e'tibor kuchaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida buyuk ajdodlarimizning, ma'naviy, madaniy, ekologik, ijtimoiy tarbiyaga oid meroslaridan

kengroq foydalanishga imkoniyat yaratildi. Ta'limiy islohotlar ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, tadqiqotchilar va olimlarimiz uchun ulkan imkoniyatlar vujudga keltirdi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarga ekologik rivojlanish, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati, shuningdek, mazkur fanni rivojlantirishning zaruriyatini. Oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan yangiliklar, fan - texnika yutuqlarini, ekologik rivojlanishlar asosida tushuntirish muhimligini ko'rsatadi, chunki o'quvchilar bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e'tiborning qadriga yetishi va uni ob'ektiv baholashi, mustaqillik sharoitida ekologik tarbiya bilan bog'liq muammolarni o'rganish va uni yechimini topish masalalarining zaruriyatini to'g'ri va haqqoniy anglab yetishi hamda kelajakka ishonch hosil qilishi uchun ularda ekologik madaniyat shakllantirish va boyitish muhim ahamiyatga ega. Eng aavvalo, tejamkorlik, ekologik bilim, iqtisodiy madaniyat, xalqimiz tomonidan saqlanib kelinayotgan an'analar, umuminsoniy an'analar, milliy an'analar, Vatan, Vatan tuyg'usi, Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, fidoyilik, insonparvarlik, milliylik, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, manfaat, milliy manfaatlar, milliy g'urur, milliy g'oya, urf- odatlar va rasm-rusumlar, ma'naviyat, ma'naviy jasorat va boshqa qator asosiy tushunchalarning mazmun- mohiyatini yoritish zarur.

Metodologiya

Ta'lim muassasalarida ma'naviy - ma'rifiy ishlarni tashkil etish orqali o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini va ahamiyatini asosli va aniq tarzda o'quvchilarga yoritib berilishi ularda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning bugungi kundagi ijobiy natijalari, yaratilayotgan yangiliklar va ularning ahamiyati, ijtimoiy -ekologik rivojlanishlar bo'yicha ijobiy tasavvurlar shakllantirish bilan bir qatorda, o'quvchilarda Vatanga muhabbat, e'tiqod va sadoqat, Davlat ramzlariga, umummilliy qadriyatlar va milliy urf-odatlariga hurmat, vatanparvarlik va insonparvarlik, kelajakka ishonch tuyg'ularini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab asrab kelganligi, O'zbekistonni yangilanishning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishining kamol topishiga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Bozor iqtisodi bilan bog'liq muammolarni to'g'ri tahlil qilish, ularni yechimini topish haqidagi keng ma'lumotlarni berish muhim sanaladi. Sababi, inson o'z ehtiyojlarini qondirishi va ko'zlagan maqsadlariga erishishi uchun chidamlilik, irodaviylik, sabr toqat,

qanoatlilik, erkin fikrlilik va ongli faoliyatni boshqara olish kabilar zarur sanaladi. Buning uchun eng avvalo, u yashayotgan yurt, ya'ni Vatan mustaqilligi, uning ravnaqi, ekologik rivojlanishi muhim ahamiyatga ega ekanligi ayni haqiqat. Binobarin, boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni rivojlantirishni quyidagi yo'nalishlarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchilarni tabiat go'zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash.

2. Jonli va jonsiz tabiatni rivojlanish qonuniyatlari, tabiat va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar insonning tabiatga ta'sir oqibatlari haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

3. O'quvchilarda ekologik ta'limni rivojlantirishni tarbiyalash.

4. Tabiatni sevishga, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana bilishga undash. O'quvchilarda tabiat oldida mas'uliyatni his etish va anglash malakasini rivojlantirishdan iborat. Ta'lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy, hayotiy, qiziqarli materiallar va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi zarur. Ana shunday materiallardan biri suv haqidagi bilimlar tizimi hisoblanadi. O'quvchilarda ekologik ta'limni rivojlantirishida ularda o'zaro ta'sirni amalga oshiruvchi omillardan biri o'quvchilarni ta'lim jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish hisoblanadi.

Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashiga ko'ra, insonning o'zi tomonidan mustaqil ravishda egallangan tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi va bu mustaqil ta'lim jarayonida, ya'ni o'quvchiga o'qituvchi tomonidan an'anaviy ravishda o'rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonida vujudga keladi, mazkur jarayonda muhokama qilinayotgan muammoning mazmun va mohiyati tushuniladi va tahlil qilinadi, refleksiv faoliyat amalga oshadi. Bizning fikrimizcha, o'quvchilarda ekologik ta'limni rivojlantirish jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish ularning faolligini ta'minlashga xizmat qiladi, o'z navbatida ijodiy faollik ham o'zaro ta'sirini amalga oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Yoshlarda ekologik ta'limni rivojlantirish masalasining naqadar muhimligini e'tirof qilgan holda ta'kidlash mumkinki, bunday davra suhbatlari, munozaralar oliygohlar qoshida tashkil qilingan radio yoki televidenie orqali namoyish qilinishi va talabalarning keng muhokamasiga qo'yilishi yaxshi natijalarni beradi. Shu bilan birga, o'quvchilar tomonidan dunyo miqyosidagi ekologik muammolarning o'rganilishi, ekologik tarbiya borasida olib borilayotgan ishlar qanday yo'lga qo'yilganligi bilan tanishish maqsadida, Internet orqali ko'plab ma'lumotlarni biladilar va tajribalarini qiyosiy tahlil qiladilar. Ekologik fojialarning oldini olishning birdan-bir yo'li tabiatni muhofaza qilish, barcha tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanishdir. Ammo, har bir inson qalbida ekologik madaniyatni shakllantirmay turib, bu borada kutilgan natijalarga erishish qiyin.

Yoshlar ongiga tabiatning o'z qonun - qoidalari mavjudligini, tabiatdagi barcha hodisalar, o'zgarishlar bir-biri bilan bog'liqligini, umuman, insonning tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishi lozimligi haqidagi tasavvurlarni singdirish, shubhasiz muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda, Vatanimiz tarixi va madaniyati, qadimiy urf odatlarimizni har tomonlama o'rganishga e'tibor kuchaydi. Ta'lim – tarbiya jarayonlarida buyuk ajdodlarimizning, ma'naviy, madaniy, ekologik, ijtimoiy tarbiyaga oid meroslaridan kengroq foydalanishga imkoniyat yaratildi.

Natijalar va muhokama

Ta'limiy islohotlar ta'lim - tarbiya jarayoni ishtirokchilari, tadqiqotchilar va olimlarimiz uchun ulkan imkoniyatlar vujudga keltirdi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarga ekologik rivojlanish, uning mazmun - mohiyati, ahamiyati, shuningdek, mazkur fanni rivojlantirishning zaruriyatini, amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan yangiliklar, fan-texnika yutuqlarini, ekologik rivojlanishlar asosida tushuntirish muhimligini ko'rsatadi, chunki o'quvchilar bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e'tiborning qadriga yetishi va uni ob'ektiv baholashi, mustaqillik sharoitida ekologik tarbiya bilan bog'liq muammolarni o'rganish va uni yechimini topish masalalarining zaruriyatini to'g'ri va haqqoniy anglab yetishi hamda kelajakka ishonch hosil qilishi uchun ularda ekologik madaniyat shakllantirish va boyitish muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, mavzu dolzarbligining quyidagi bosh omillari mavjud: - dunyo miqyosida ekologik ta'limning zamonaviy talablari va rivojlanish tendensiyalar; - ekologik ta'limni rivojlantirish asosida o'z faoliyatini tashkil qila oluvchi texnik kadrlarga bo'lgan talabning ortib borayotganligi; - pedagog kadrlarning ekologik ta'limni rivojlantirishga doir mutaxassislik kompetensiyasiga bo'lgan talabning o'zgarganligi va uning takomillashuvi taqozo etilayotganligi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchi yoshlar jonli va jonsiz tabiat to'g'risida dastlabki bilimlarga ega bo'lish bilan bir qatorda ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga, shaxs va tabiat mustaqil qadriyat ekanligiga, insonning tabiatdagi ahamiyati va o'rnini ularning ongiga singdirishga, suv, tuproq va havoni toza saqlash, atrof-muhitning go'zalligini shakllantiriladi. anglashga qaratilgan boshlang'ich fazilatlar Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars jarayonida ekologik ta'limni rivojlantirishni doimiy ravishda o'qish, odobnoma, tabiat darslari orqali bolalarga atrof-muhit, o'simlik, hayvonlar haqida ma'lumot beriladi hamda tozalik va ozodalikka rioya qilish tabiatdagi barcha narsalarni sarab - avaylashni singdirilib boriladi.

O'quvchilarga dars jarayonida ekologik tarbiya berish ularning ma'naviy axloqiy jihatidan kamolotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu darslarda ekologik tarbiya berishda o'qituvchilar og'zaki ko'rgazmalilik, izlanuvchanlik, suhbat metodlaridan keng foydalaniladi. Shuningdek, bola bilimining samarali bo'lishi uchun hamda ma'lum

natijalarga erishish uchun o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalaniladi. Bolaning maktabda dars jarayonida olayotgan ta'lim-tarbiyasi ularning shaxs sifatidagi insoniy kamolotida muhim o'rin egallaydi. Hayotga bo'lgan qiziqish ijobiy xislatlar, tabiatni asrab-avaylash, har bir narsaga muhim ekanligi nazari bilan qarash o'quvchilarda ekologik tarbiyaning natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, dars jarayonida bolaga ekologik ta'limni rivojlantirishda turli xalq og'zaki ijod namunalari, she'rlar, qo'shiqlardan foydalaniladi.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichida bilim oluvchi o'quvchilarga o'simlik va hayvonlarning xilma-xilligi, ularning tabiatdagi o'rni, tabiatning bir bo'lagi ekanligi, ular o'zaro hamda atrof-muhit bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Shu bilan birga ularda ekologik ta'limni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratiladi. Inson sog'-salomatligini saqlash maqsadida atrof-muhit tozaligini muhofaza qilish, sog'lomlashtirish tadbirlari bilan tanishtirish, o'zbek xalqining ekologik qadriyatlari bilan bog'liq bayramlar, sayllar va hasharlarda ishtirok etish orqali ekologik fazilatlar shakllantiriladi. Bu fazilatlar asosan, axloqiy ekologik onglik, ekologik qadriyatlarni ardoqlash va mehnatsevarlik kabilardan iborat.

Boshlag'ich ta'limida ekologik bilimlarini dialektik dunyoqarash asosida o'rganish bilan birga ularda ekologik madaniyatning asosiy fazilatlarini shakllantiriladi. Bunda avvalo, huquqiy ekologik tarbiyaga alohida ahamiyat beriladi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ekologik bilim olishda asosiy e'tibor atrof-muhit muhofazasi, tabiatdan oqilona va tejankorlik bilan foydalanish, atrof muhitni yaxshilashga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan global bilimlarga katta ahamiyat beriladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish, global va hududiy - ekologik muammolarni bilish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy manbalaridan biri hisoblangan o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari, tabiatni, atrof-muhitni va madaniy meroslarini asrab-avaylash bilan bog'liq qadriyatlarini himoya qilish, saqlash. Ularni ko'paytirish va kelajak avlodga yetkazish bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy mas'uliyat, vijdonlilik, burchga sadoqat, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar shakllanadi va ular rivojlantiriladi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiya sohasida o'sha zamonlarda, hattoki hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan fikrlari pedagogika fani metodologik asoslarini tavsiflashda nihoyatda muhimdir. Ya'ni, u ta'lim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb ta'kidlaydi:

- ta'lim oluvchini zeriktirmaslik kerak;
- talabalarga bilim berishda bir xil narsa va ma'lumotlarni doimo bir xil usulda o'rgatavermaslik kerak;

- uzviylik va izchillik asosida mavzularni qiziqarli qilib o‘rgatish yo‘llarini kashf etib borish kerak;

- ta’lim berishda mashg‘ulotlarni ko‘rgazmali qilib borishga erishish kerak;

- talabalarning bilim olishida ularning ilmlarni egallashiga tushunib harakat qilishini, ya’ni ijodiy intilishiga va qiziqishiga e’tibor doimo ta’lim beruvchining diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim.

Abu Rayhon Beruniy ta’lim-tarbiya jarayonida muhitning ahamiyatiga alohida e’tibor bergan va u barcha illatlarning asosini bilimsizlik tashkil etadi, degan fikrda qat’iy turgan.

Beruniy inson kamolotidagi omillarni quyidagi asosiy qismlarga bo‘ladi:

- ma’rifat va ta’lim beruvchining ilm-ma’rifatli bo‘lishi:

- ilm-fanni e’tirof qiluvchi muhit;

- ijtimoiy muhit va to‘g‘ri tarbiya;

- ta’lim beruvchining yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo‘lishi.

Yoshlarda, shu jumladan o‘quvchilar va talabalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishda Abu Ali ibn Sino asarlarining ahamiyati katta. Alloma tomonidan yaratilgan asarlarning soni 450 dan ortiq bo‘lib, ularning 80 dan ortig‘i tabiat va insonning unga bo‘lgan munosabati masalasiga bag‘ishlangan.

Abu Ali ibn Sinoning tog‘larning paydo bo‘lishi, yer yuzasidagi tabiiy jarayonlarning davrlar o‘tishi bilan o‘zgarishiga oid g‘oyalari pedagogika fanining rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Tashqi muhitning odamlar tanasiga ko‘rsatadigan ta’siri, ular sog‘ligini saqlash, parhez, shaxsiy gigiena to‘g‘risidagi fikrlar alloma tomonidan yaratilgan “Tib qonunlari” asarining bosh g‘oyalari sanaladi. Allomaning inson tanasida kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri suv, yer va havoda mo‘‘tadillikning buzilishi bilan bog‘liqligi, yashash joylarining torligi, ozoda bo‘lmasligi, yuqumli (chechak, vabo isitmasi, yiring, toshma kabi) kasalliklarning tez tarqalishi uchun qulay sharoit yaratishi, yuqumli kasalliklarning aholi zich joylashgan joylarda havo va boshqa omillar orqali yuqishiga doir o‘gitlari bugungi kunda ham muhim ijtimoiy-tibbiy ahamiyatga egadir. Mutafakkirning “Agar havoda chang va g‘ubor bo‘lmaganida edi, inson ming yil umr ko‘rgan bo‘lar edi” degan mashhur iborasi esa o‘quvchilarda havoni ifloslantirmaslik, atrof-muhitni ozoda saqlash va tabiatga ziyon etkazmaslik ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlariga yordam beradi.

Olimning fikricha, inson tabiatdan moddiy hayot manbalarini o‘zlashtiribgina qolmay, balki ruhiy va jismoniy quvvat ham oladi. Shuningdek, u ayrim kasalliklarni davolashda tabiiy manbalar, xususan, qum, tuproq, suv va o‘simliklardan foydalanish zarurligini uqtirib, zarur tavsiyalar beradi. Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida bir qator

kasalliklarni davolash yo'llarini ko'rsatibgina qolmay, balki jismoniy tarbiyaning salomatlikni muhofaza qilishdagi ahamiyatini ham asoslab bergan.

Alloma yoshlarda sog'liqni saqlashning eng muhim omillari sifatida quyidagilarni e'tirof etgan: 1) badan tarbiya; 2) to'g'ri ovqatlanish va dam olish; 3) yetarli va samarali bo'lgan uyqu. U badan tarbiyani kishining yoshiga, salomatligiga va kasalligiga qarab, turli usullarda o'tkazish kerakligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik davrida kishi jismoniy mashg'ulotlarga turlicha munosabatda bo'lish kerak. Abu Ali ibn Sino: "Jismoniy mashq kishini ketma-ket chuqur nafas olishiga majbur qiladigan ixtiyoriy harakat" ekanligini qayd etgan holda muntazam ravishda badan tarbiya bilan shug'ullangan kishiga dard yaqin yo'lamasligi, tabibga ham, dori-darmonga ham muhtojlik sezmasligini aytib o'tadi.

Abu Ali ibn Sino jismoniy tarbiyaning turli ko'rinishlari va ulardan qanday foydalanish kerakligini ham ko'rsatib bergan. U jismoniy mashqlarni quyidagi guruhlariga bo'ladi: "Kichigi va kattasi, juda kuchli va kuchsiz, tez va sust yoki tez va shiddatli harakatlardan iborat yoxud sust turi". Alloma bolalarning badan tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun qulay bo'lgan vaqtlarni ham tavsiflagan. Chunonchi, badan tarbiya uchun bahor faslida tushga yaqin vaqt qulay bo'lib, mashq o'rtacha haroratli uyda bajarilishi, yozda ertalab, qishda esa kechqurun jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqdir. Mutafakkirning fikricha, badan tarbiyasi bilan shug'ullanishda yana quyidagi shartlarga ham rioya qilish zarur: qishda uyni o'rtacha haroratda isitish, mashqlarni ovqat hazm bo'lgach amalga oshirish tibbiy jihatdan to'g'ri sanaladi.

Alloma bolalar tomonidan badan tarbiya bajarilayotgan quyidagi uch holatga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi:

Terining rangiga - agar u yaxshilana borsa, mashqlarni davom ettirish mumkin, agar ter chiqa boshlasa, harakatni to'xtatish lozim.

Mashqlarning yengilligiga - jismoniy mashg'ulot davomida kishi tanasi yengil bo'lib tursa mashqni davom ettirish mumkin.

A'zolarining holatiga - agar ularning ko'pchishi davom etsa, mashqni davom ettirish mumkin, agar ko'rsatilgan belgilar yo'qola borsa, mashqni darhol to'xtatish kerak.

Ulug' alloma Abu Ali ibn Sinoning jismoniy tarbiyani samarali va uzluksiz tashkil etishga oid tavsiyalari bilan o'quvchilar, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanishtirish va ularda jismoniy faollik, jismoniy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirish ularning har tomonlama etuk bo'lib voyaga etishlariga yordam beradi.

Abu Ali Ibn Sinoning atrof muhitning inson organizmiga ko'rsatadigan ta'sirlari va inson salomatligini saqlashga oid qarashlaridan pedagogikada foydalanish amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abu Ali ibn Sinoning shaxsiy gigienaning ahamiyati borasidagi qarashlari

o'quvchilar ta'lim tarbiyasida samara beradi. Alloma ko'mir gazining zararli xususiyatini ilmiy jihatdan tavsiflagan: "Ko'mir hidi, miqdori bilan emas zaharlilik quvvati hisobiga miyani qizdiradi, quritadi hamda uning quvvatini zaiflashtiradi", - deb ta'kidlagan.

O'zbekiston davlatchiligining asoschisi Amir Temur ta'limotida mamlakat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga alohida e'tibor berilgan. Sohibqiron vujudga keltirgan markazlashgan davlat o'zining iqtisodi, boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Shu jumladan mamlakatning suv, er resurslarining ahvoli, ulardan unimli foydalanish, kelajak avlodlarga ularning tabiiy holatining buzilmasdan etkazilishiga e'tibor berilgan. Amir Temurning ekologik qarashlarini o'rganish hozirgi davr uchun ham nazariy, ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Uning ekologik qarashlari yoshlar, talabalarda ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologik ongini o'stirish, ayniqsa bo'lajak pedagoglar ekologik tarbiyasida muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktablarda tabiatni muhofaza qilishda ekologik madaniyatning muhim shart sharoiti sifatida tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish g'oyalarini keng axoli ommasi yaxshi tushunib etgandagina bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Shu sababli tabiatni muhofaza qilish xaqidagi bilimlarni yoyish hozirgi vaqtning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu vazifani bajarishda albatta umumta'lim maktablarining roli benihoya katta. Binobarin, oquvchilarni tabiatni sevish, unga hurmat bilan qarash, uni e'zozlash, tabiatni toza tutish, tabiiy resurslarni extiyot qilish ruhida tarbiyalash hozirgi maktabning asosiy burchidir.

Maktablarda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid ta'lim-tarbiya ishlari o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajalariga moslab olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. – T.: Fan, 2001. – 19 b.
2. Al-Qur'on al-karim ma'nolarining tarjimasi va sharhlar [Tarjimon va mufasssir – Sayyid Mahmud ibn Sayyid Nazir at-Taroziy al-Madaniy (Oltinxon To'ra)], 2-nashr, T, 2002.
3. Сино, Абу Али ибн. Тиб қонунлари. III жилдлик сайланма /Тузувчилар: У.Каримов, Х.Хикматуллаев. - Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1996. – 418 б.
4. Хайруллаев М.М. Маънавият юлдузлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2001. - 406 б.

5. Темур тузиклари.Т.: Гофур Гулом номидаги нашриёт- матбаа бирлашмаси, 1991, 55 -56 бет.
6. Клавихо Г. История Великого Тимура. В книге “Тамерлан: Автобиография Тамерлана. В книге “Тамерлан: Эпоха. Личность. Деяния», М.; «Гураш», 2002, с.83. Автобиография Тамерлана. В книге “Тамерлан: Эпоха. Личность. Деяния», М.; «Гураш», 2002, с.
7. Mamajonov.Sh.A. Talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish ekologik xavfsizlik garovidir. // — Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar muammo va yechimlar|| Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami II qism, Termiz davlat universiteti, 2022. B. 156-159.
8. Murodov M., Hakimov N., Ergashev A. Qadriyatnoma.– T.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 2001. – 544 b.